




filologiya fanlari doktori, professor  
Hamid G'ulomovich Ne'matov  
tavalludining 80 yilligiga bag'ishlanadi



# **FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM**

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## **MATERIALLARI**



2021-yil 22-noyabr

qismidir. U boshlanma, asosiy reklama matni bilan bir butunlik hosil qiladi va yakka holda qo'llanmaydi. Slogan esa reklama strukturasi mustaqilligi va shu bilan birga yakka holda qo'llanishi bilan ajralib turadi. Slogan yakka holda qo'llanganda reklama matni avvaldan adresatlarga tanish bo'ladi. Bunda slogan eslatuvchi xarakterda voqelanadi.

Xullas, reklama matnining barcha tarkibiy qismlari (boshlanma, asosiy reklama matni, e-xibora, slogan) mavjud bo'lganda, tibbiy reklama yanada jozibali, ishonchli bo'ladi, shuningdek, ular mohirona tarzda bir-biriga uyg'un holda yaratilsa, reklama matnining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Имшинецкая И. Креатив в рекламе. Серия «Академия рекламы». М.: Рип-холдинг, 2004 <http://evartist.narod.ru/text11/58.htm>

2. Иванова А. А. Строй текста рекламной пропаганды: на материале английского языка тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.02.04, кандидат филологических наук. 2009. С. – 9. [л https://www.dissercat.com/content/stroi-teksta-reklamnoi-propagandy](https://www.dissercat.com/content/stroi-teksta-reklamnoi-propagandy)

3. Мамирова Д. Ўзбек реклама матнларининг социолингвистик тадқиқи. Филология фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Самарқанд, 2021. Б. – 42.

4. Репев А.П. Язык рекламы. Часть II. [http://www.repiev.ru/articles/ad\\_lang\\_II.htm](http://www.repiev.ru/articles/ad_lang_II.htm)

5. Сердобинцева Е. Н. Структура и язык рекламных текстов: Учебное пособие. Флинта, наука. Москва, 2010. С. – 24.

6. Шахобиддинова Ш., Рустамов Д., Попов Д., Рустамова Д., Абдуллаев Б., Миралимова Ш. Оммавий лисоний маданият. Мулоқот маданияти ва саводхонлиги. Жамоавий монография. – Андижон, 2021. 150 б.

### **RUS GURUHLARDA SINONIMLAR VOSITASIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.88.48.056**

*Mahira Rasulevna Saidova*

BuxDU rus tili va adabiyoti kafedrası  
dotsenti

*Jasmin Ulug'bekovna Kurbanova*

BuxDU filologiya fakulteti 2 -kurs talabasi

**Annotatsiya.** *O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi uning nufuzini yanada yuqori ko'taradi. Davlat, xalq xo'jaligi, madaniyat hamda san'at sohasida uning qo'llanish ko'lami kengaydi. Natijada, rusiyazon shaxslarda bu tilning nozik qirralarini yanada chuqurroq o'rganish uchun ehtiyoj tug'ildi. O'zbek tilining nozik qirralaridan biri nutqdagi sinonimiya masalasidir. Darhaqiqat, sinonimlarga xos qo'shimcha ma'no bo'yoqlarini to'la egallamay turib chiroyli, mantiqli, aniq, madaniy nutq so'zlash amrimahol.*

**Kalit so'zlar:** leksik sinonimlar, frazeologik sinonimlar, morfologik sinonimlar, sintaktik sinonimlar

Ma'lumki, sinonimlar leksik, frazeologik va grammatik (morfologik, sintaktik) ko'rinishlarga ega. Biz bu o'rinda rus va o'zbek tillarga leksik sinonimiyaga xos ma'no nozikliklarini chog'ishtirish orqali talabalarning nutq boyligini takomillashtirish haqida fikr yuritimiz.

O'zbek tilida ham, rus tilida ham sinonimlar, eng avvalo, shu tillarning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo'lgan so'zlar hamda boshqa tillardan olingan so'zlar asosida paydo bo'ladi. Shuning uchun talabalarga biror so'zning sinonimini izlashda quyidagi ko'rgazmaga ular diqqatini jalb qilamiz.

Rus tilida: 1. лицо, образ, рожа, морда, печаль, грусть, горесть, скорбь, тоска.

O'zbek tilida: 1. yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, oraz.

Jadvaldagi ikki tilga xos sinonim soʻzlarni qiyoslab, nutqiy aloqa jarayonida har bir sinonimik qatordagi soʻzlarning qoʻshimcha maʼno boʻyogʻini toʻla anglagan holda oʻz oʻrnida tanlab qoʻllashni mashq qildiramiz.

Ikkinchi bir oʻrinda, nutq madaniyati, soʻzlash madaniyati bilan bevosita bogʻliq boʻlgan «pardali soʻzlar»— evfemizmlar va oddiy soʻzlar sinonimiyasi haqida fikr yuritib, ikkinchi koʻrgazmani talabalar hukmiga havola qilamiz:

Rus tili:

1. Вместословау мер:  
скончался, отправился к  
праотцам, протянул ноги

Oʻzbek tili:

1. Oʻldi soʻzi oʻrnida koʻz yumdi,  
dunyodan oʻtdi, qazo qildi, va  
fot etdi.

Sinonimlar badiiy nutqda tasvirlash vositasi boʻlib xizmat qiladi. Yozuvchilar sinonimlar vositasida kishilar xarakterini, voqea – hodisalarni, manzaralarni aniq va ravshan, jozibali qilib tasvirlaydilar. Sinonimlardagi bunday xususiyatlarni XV asrdayoq A.Navoiy sezgan edi. Oʻzining «Muhokamat ul-lugʻatayn» asarida «ichmoq» soʻzining oltita, «yigʻlamoq» soʻzining yettita sinonimini keltiradi: yigʻlamoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, oʻqimoq, inichkirmoq, hoy-hoy yigʻlamoq. A.Navoiy bu sinonimlar bir-biridan oʻzining nozik maʼno ottenkalari bilan farq qilinishini sheʼriy misralar bilan tushuntiradi.

Dard bilan yashirin, ohista yigʻlamoq, «ingramoq», «singramoq»dir,

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamoq,

Kechalar goh ingramoq odatiy, goh singramoq.

Qattiq ovoz bilan baqirib yigʻlashga hoy-hoy yigʻlamoq deydilar. Navoiy, ul gun uchun hoy-hoy yigʻlama koʻp.

Darsda kulmoq, iljaymoq, tirjaymoq, xoxolamoq, qiqirlamoq kabi sinonimlar ishtirok qilgan soʻzlar vositasida turli nutq uslublariga xos gaplar tuzdiriladi. Uy vazifasi qilib, «chiroyli, goʻzal, xushroʻy, yoqimli, koʻrkam» soʻzlari ishtirok etgan kichik hikoya yozib kelish topshiriladi.

Dars xulosasida talabalarga rus va oʻzbek tillari sinonimlarga boy ekanligi, ularning har biri oʻz maʼno qirrasiga ega ekanligi taʼkidlanib, ularni ana shu maʼno qirralarni toʻla anglab, oʻz nutq boyligi va madaniyatini yanada yuksaltirishlariga daʼvat etiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi oʻzbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdon, 2021.–555 b.
2. Rasulov R., Narziyev M. Leksikologiyani oʻrganish. –T., 1992.
3. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119111> Tilshunoslikka kirish
4. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110> Hozirgi oʻzbek tili

## ШАХСЛАРАРО МУЛОҚОТ ТИЗИМИ

DOI: 10.53885/edinres.2021.43.91.079

*Ш.Х.Шаҳобиддинова,*

АДУ профессори, филология фанлари доктори

*Д.А.Рустамов,*

АДУ доценти, филология фанлари бўйича фалсафа

доктори (PhD)

Инсоннинг моҳияти мулоқотда очилади. Мулоқот инсонни ижтимоийлаштиради. Шунингдек, айнан жамоа инсонни мулоқотга чорлайди. Жамият ва йирик ижтимоий гуруҳлар таъсирининг шахсга бевосита йўналтирувчиси кичик гуруҳдир. Бу бирон бир умумий фаолият билан шуғулланадиган ва бир-бири билан бевосита мулоқотда бўлган одамларнинг (2-3 дан 20-30 кишигача) кичик бирлашмаси, жамиятнинг бошланғич бирлигидир. Инсон ҳаётининг катта қисмини шу гуруҳларда ўтказди. Инсон учун энг муҳим бўлган **кичик гуруҳларга оила, мактаб синфлари, меҳнат жамоаси, яқин дўстлар жамоаси, танишлар гуруҳи ва бошқалар** киради.